



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI
HUZURIDAGI MAKTABGACHA TA‘LIM AGENTLIGINING
B U Y R U G‘ I

2023-yil 9 - iyun

50 -son

Xodimlarni ishga qabul qilishda tanlov asosida saralab olish
tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmonida davlat fuqarolik xizmatchilarining vakant lavozimlariga ochiq tanlovni o‘tkazishda shaffoflikni oshirish va inson omilini qisqartirish, “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 8-maydagi PF-67-son Farmonida davlat xizmatiga kirishda O‘zbekistonning barcha fuqarolari uchun teng sharoitlarni yaratish belgilanganligi, shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 3-oktyabrdagi PF-5843-son Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi (keyingi o‘rinlarda - agentlik deb yuritiladi) markaziy apparatiga yuqori malakali kadrlarni jalb qilish, ishga qabul qilish, boshqa doimiy lavozimga o‘tkazish jarayonida shaffoflikni ta’minlash, ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiq maxsus elektron dastur asosida talabgor fuqarolar va tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarning barchasiga teng imkoniyatlar yaratgan holda saralab olish tartibini joriy etish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi markaziy apparati vakant lavozimlarga xodimlarni ishga qabul qilishda tanlov asosida saralab olish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi nomenklaturasiga kiritilgan mavjud vakant

lavozimlarga ishga qabul qilishda tanlov asosida saralab olish bo'yicha tanlov komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Agentlik markaziy apparatining barcha tarkibiy bo'linma rahbarlariga joriy yilning 15-iyun kuniga qadar Tanlovlarning suhbat bosqichida nomzodlarga tasodifiy tanlash (random) dasturi orqali beriladigan savollar ro'yxatini ishlab chiqib, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limiga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (N.Abdunazarova)ga 2023-yilning 15-iyuliga qadar nomzodlarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini aniqlash maqsadida maktabgacha ta'lim sohasi bo'yicha test savollar (500 tadan kam bo'lmagan hamda bir-birini takrorlamaydigan) bazasini talablar darajasida sifatli tayyorlash va agentlikning Pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish boshqarmasiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish boshqarmasi (I.Ismatov)ga Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tomonidan taqdim etilgan test savollarining sifatini to'liq ko'rib chiqish vazifasi yuklatilsin.

5. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (B.Bashirov):

agentlik tomonidan tayyorlangan test savollari bazasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga taqdim etish hamda ushbu agentlik va uning filiallari bilan hamkorlikda test savollarining maxfiylikini ta'minlash;

mazkur buyruq ilovasi bilan tasdiqlanayotgan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi markaziy apparati vakant lavozimlarga xodimlarni ishga qabul qilishda tanlov asosida saralab olish tartibi to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan kelishish choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.

6. Ishlar bo'limi (R.Irisov) tanlov o'tkazish bo'yicha test sinovi va suhbat bosqichlarini samarali tashkil etish maqsadida alohida xona ajratilishini hamda jihozlanishini ta'minlasin.

7. Axborot xizmati (M.Asqarxo'jayeva), Axborot xavfsizligini ta'minlash va raqamlashtirish bo'limi (A.Djurayev)ga:

vakant lavozimlar haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilish, test sinovlari va suhbat bosqichi jarayonlarini agentlikning rasmiy veb sayti va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borilishini;

suhbat bosqichini internet tarmog'ida real vaqt rejimida (online) translyatsiya qilib borilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

8. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (B.Bashirov) Maktabgacha ta’lim agentligi markaziy apparatidagi vakant lavozimlarga xodimlarni ishga qabul qilishda tanlov asosida saralab olish tartibi to‘g‘risidagi nizomga qat’iy rioya etgan holda vakant lavozimlarni to‘ldirib borilishini ta’minlasin.

9. Axborot-tahlil va ijro intizomi bo‘limi (A.Odilov) ushbu buyruqni agentlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalariga ijro uchun yetkazsin.

10. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirining “Xodimlarni ishga qabul qilishda taanlov asosida saralab olish tartibini tasdiqlash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2021-yil 7-iyundagi 107-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Ushbu buyruqning ijrosini samarali tashkil etishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib direktorning birinchi o‘rinbosari F.Boboyev, o‘rinbosarlari N.Muslitdinov va O.Raxmatillayevlar belgilansin.

12. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining birinchi o‘rinbosari -
Maktabgacha ta’lim agentligi direktori**



A.Shin

**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Maktabgacha ta'lim agentligi markaziy apparati vakant lavozimlarga
xodimlarni ishga qabul qilishda tanlov asosida saralab olish tartibi
to'g'risidagi
NIZOM**

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 3-oktyabrdagi PF-5843-son Farmoni talablari asosida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi (keyingi o'rinlarda - Agentlik deb yuritiladi) xodimlari vakant lavozimlariga ishga qabul qilish, boshqa doimiy lavozimga o'tkazish jarayonida shaffoflikni ta'minlash, ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq maxsus elektron dastur asosida talabgor fuqarolar va tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarining barchasiga teng imkoniyatlar yaratgan holda saralab olish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom qoidalari quyidagi hollarda tadbiq etilmaydi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan yoki ular bilan kelishiladigan lavozimlar, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa;

agentlik markaziy apparati (boshqa doimiy ishga o'tkazishga, xodimning mehnat vazifalarini o'zgartirishga) boshqaruv xodimlari tarkibidan boshqa teng yoki quyi lavozimga o'tkazilganda;

homiladorlik va tug'ish ta'tillari, bolalarni parvarishlash ta'tillaridagi ayollar o'rniga vaqtincha ishga qabul qilganda;

texnik va xizmat ko'rsatuvchi toifadagi lavozimlarga.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

vakant lavozim – Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestrda mavjud egallanmagan lavozim;

nomzod – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining "Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali"da (keyingi o'rinlarda – Portal) vakant lavozimni egallash bo'yicha nomzod sifatida mazkur Nizomda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

tanlov – mazkur Nizom talablari asosida o'tkaziladigan, tashkilot oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali bajarishga bilimi, malakasi, kasbiy ko'nikmasi,

shaxsiy-psixologik xususiyatlari mosligini aniqlashga qaratilgan, mehnat shartnomasini tuzishdan oldingi holatlar majmui.

3. Tanlov meritokratiya, ochiqlik, muqobillik va tenglik tamoyillari, mehnat qonunchiligi normalari hamda mazkur Nizom talablariga asosan amalga oshiriladi.

4. Tanlov paytida nomzodlarni jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyiga ko'ra kamsitishga yo'l qo'yilmaydi.

5. Tanlovda ishtirok etish uchun qoida tariqasida, davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash huquqi qonunchilik bilan cheklanmagan va tegishli lavozimni egallash uchun malaka talablariga javob beradigan shaxslar qo'yiladi.

6. Tanlov asosida davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilingan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan kelishmasdan ish beruvchining tashabbusi bilan lavozimidan ozod etilishi mumkin emas. O'z xohishiga ko'ra, egallab turgan lavozimidan ozod etilishi to'g'risida ariza yozilgan holatlar bundan mustasno.

2-bob. Tanlov turlari

7. Vakant lavozimlarini egallash Portal orqali o'tkaziladigan ichki va tashqi tanlovlar asosida amalga oshiriladi.

Ichki tanlovlarda Agentlik tizimida faoliyat yuritayotgan davlat fuqarolik xizmatchilari, tashqi tanlovlarda esa tegishli malaka talabiga javob beradigan barcha nomzodlar ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

8. Ichki tanlovlar vakant lavozim vujudga kelgan kundan boshlab o'n besh ish kuni ichida e'lon qilinadi.

Ichki tanlovlar natijasida tanlov g'olibi aniqlanmagan yoki vakant lavozim vujudga kelgan kundan boshlab o'n besh ish kuni ichida ichki tanlov e'lon qilinmagan taqdirda, ushbu vakant lavozim bo'yicha tashqi tanlov e'lon qilinadi.

Bitta vakant lavozim uchun bir martadan ortiq ichki tanlov o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Agentlik tizimidagi boshlang'ich lavozimlarni egallash faqat tashqi tanlovlar asosida amalga oshiriladi.

3-bob. Tanlovni tashkil etish

9. Portaldagi vakant lavozimlar to'g'risidagi ma'lumotlar avtomatik "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksidagi ma'lumotlar asosida shakllanadi.

Vakant lavozimlar to'g'risidagi ma'lumotlar Portalga joylashtirilgan sana mazkur lavozimni egallash bo'yicha tanlov e'lon qilingan kun deb hisoblanadi.

10. Tanlov quyidagi bosqichlar asosida tashkil etiladi:

birinchi bosqich – tanlov o‘tkazilishi to‘g‘risida e‘lon berish;
ikkinchi bosqich – nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish va saralash;
uchinchi bosqich – nomzodlarning bilimini test sinovidan o‘tkazish;
to‘rtinchi bosqich – nomzodlar bilan suhbat o‘tkazish.

Tanlovlarda nomzodlar soni uch nafar va undan kam bo‘lgan hollarda davlat organi tomonidan tanlovning uchinchi bosqichi o‘tkazilmasligi mumkin.

11. Tanlov o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lon Portalda, agentlikning rasmiy veb-saytida hamda ijtimoiy tarmoqlarida joylashtiriladi.

Mazkur e‘lon davriy nashrlarda ham joylashtirilishi mumkin.

Tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘londa quyidagilar ko‘rsatiladi:

o‘tkazilayotgan tanlov turi;

vakant lavozim nomi va unga qo‘yiladigan malaka talablari;

lavozim majburiyatlari;

lavozim maoshi;

mehnat sharoitlariga oid ma‘lumotlar.

Lavozimlarning ayrim toifalari uchun qo‘shimcha talablar mavjud bo‘lgan taqdirda, e‘longa bu haqda ma‘lumot kiritiladi.

12. Ichki tanlovda ishtirok etish bo‘yicha nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish muddati tanlov e‘lon qilingan kundan boshlab besh kalendar kunni tashkil qiladi. Tashqi tanlovlar bo‘yicha hujjatlarni qabul qilish muddati o‘n kalendar kungacha uzaytirilishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha hujjatlar kelib tushmagan taqdirda, ushbu lavozim bo‘yicha qayta tanlov avtomatik tarzda e‘lon qilinib, hujjatlarni qabul qilish muddati besh kalendar kunga uzaytiriladi.

Tanlovning barcha bosqichlari tanlovda ishtirok etish bo‘yicha hujjatlarni qabul qilish muddati tugagan kundan boshlab yigirma ish kuni mobaynida o‘tkazilishi lozim.

13. Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha hujjatlar faqat Portal orqali elektron tarzda qabul qilinadi. Nomzodlardan hujjatlar va ularning nusxalarini qog‘oz shaklida talab qilish hamda yuborish man etiladi.

14. Nomzodga bir vaqtning o‘zida agentlikning bittadan ortiq bo‘lmagan vakant lavozimini egallash uchun tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi.

15. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish bo‘yicha tanlov natijasiga ta‘sir qiladigan yolg‘on ma‘lumotlar (hujjatda yo‘l qo‘yilgan texnik xatolik yoki boshqa kamchiliklar bundan mustasno) taqdim etilganligi aniqlanishi ularni tanlovdan chetlatish yoki tanlov natijalarini bekor qilish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

16. Tanlovda “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 28-moddasida belgilangan davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan shaxslardan boshqa barcha shaxslar ishtirok etishi mumkin.

17. Agentlikda tanlovlarni o‘tkazish uchun kamida besh nafardan yetti nafargacha a‘zodan iborat Tanlovlarni tashkillashtirish va o‘tkazish komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov komissiyasi) tuziladi.

Tanlov komissiyasining tarkibi agentlik direktori qarori bilan tasdiqlanadi.

Tanlov o‘tkazilayotgan agentlikning direktori (direktorning birinchi o‘rinbosari) Tanlov komissiyasining raisi hisoblanadi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga qoida tariqasida:

agentlikning vakant lavozimiga tanlov e‘lon qilingan tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari;

agentlikning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi boshlig‘i (xodimi);

agentlikning Yuridik ta‘minlash bo‘limi boshlig‘i (xodimi) kiritiladi.

Qonunchilik hujjatlarida lavozimga tayinlashda nomzodni tegishli vazirlik yoki idora bilan kelishish belgilangan bo‘lsa, Tanlov komissiyasi tarkibiga mazkur vazirlik yoki idoraning mas‘ul vakili ham kiritiladi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga davlat organlari, ta‘lim muassasalari hamda vakant lavozimning xususiyatidan kelib chiqib, boshqa mutaxassislar ham kiritilishi mumkin.

Agentlik va Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan doimiy ravishda Tanlov komissiya a‘zolarining malakasi oshirib boriladi.

Tanlov o‘tkazilishi davomida tanlov qoidalarini buzgan hamda qaror qabul qilishda xolislikni ta‘minlay olmagan Tanlov komissiyasi a‘zosi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan komissiya tarkibidan chiqarib yuborilishi mumkin.

18. Tanlov komissiyasi o‘z faoliyatini kollegiallik, oshkoralik, xolislik, adolatlilik, qonuniylik va betaraflik tamoyillari asosida amalga oshiradi.

19. Tanlov o‘tkazilayotgan agentlikning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi tanlov komissiyasining ishchi organi (keyingi o‘rinlarda – ishchi organ) hisoblanadi.

4-bob. Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlarni saralash

20. Tanlov unda ishtirok etish uchun kamida ikkita nomzoddan hujjatlar kelib tushgan taqdirda o‘tkaziladi.

21. Tanlov komissiyasi hujjatlar qabul qilish muddati tugagan kundan e‘tiboran besh ish kuni ichida nomzodlarning vakant lavozim uchun belgilangan

malaka talablariga mosligini o'rganib chiqadi va ushbu muddat ichida ishchi organ tomonidan o'rganish natijasi bo'yicha nomzodlarning Portaldagi shaxsiy kabinetlariga xabar yuboradi.

Nomzod malaka talablariga mos emas deb topilgan taqdirda, Portaldagi shaxsiy kabinetga yuboriladigan xabarda uning asoslari ko'rsatiladi.

Ishchi organ tanlov bosqichlari o'tkazilishi bo'yicha ma'lumotlarni nomzodlarning Portaldagi shaxsiy kabinetlariga tanlov bosqichlari o'tkazilishi boshlanishidan kamida yigirma to'rt soat oldin yuborilishini ta'minlaydi.

22. Tanlov o'tkazishda oshkoralik va xolislikni ta'minlash maqsadida uchinchi va to'rtinchi bosqichlar videoyozuv orqali yozib olinadi hamda davlat organi tomonidan olti oy davomida saqlanadi.

23. Nomzodlar tanlov bosqichlari natijalari va o'tkazilishi bo'yicha ma'lumotlarni Portaldagi shaxsiy kabineti orqali kuzatib boradi.

Tanlov bosqichlari o'tkazilishi to'g'risida o'rnatilgan tartibda Portaldagi shaxsiy kabinet orqali xabardor qilingan, lekin unda ishtirok etmagan nomzodlar tanlovdan chetlashtiriladi.

5-bob. Test sinovlarini o'tkazish

24. Test sinovlari nomzodlarning bilim va malakasini baholash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining Davlat xizmatining yagona elektron-axborot tahlil tizimidagi "Davlat xizmatchilarini sinovdan o'tkazish moduli" – maxsus test tizimi orqali o'tkaziladi.

25. Test sinovlari davlat tilida o'tkaziladi.

26. Test sinovlari ishchi organ tomonidan Maktabgacha ta'lim agentligining maxsus jihozlangan xonasida o'tkaziladi.

27. Test sinovlarini o'tkazish jarayonida nomzodlarga quyidagilar taqiqlanadi: aloqa va telekommunikatsiya vositalari (telefon, kompyuter, planshet va boshqalar), kitob hamda shpargalkalardan foydalanish;

boshqa nomzodlar bilan suhbatlashish;

test sinovlari tugamasdan xonadan tashqariga chiqish.

Mazkur talablarni buzgan nomzod ishchi organ tomonidan dalolatnoma tuzilgan holda tanlovdan chetlashtiriladi.

28. Nomzod tomonidan test sinovlari natijasida kamida 60 ball to'planishi, uning tanlovning keyingi bosqichiga o'tishi uchun asos bo'ladi.

29. Test sinovlari natijalari avtomatik ravishda nomzodning Portaldagi shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

30. Test sinovlarini ijobiy topshira olmagan nomzodlar ushbu Nizomda belgilangan tartibda e'lon qilingan yangi tanlovda qatnashishi mumkin.

6-bob. Suhbat o'tkazish

31. Suhbat nomzodning intellektual salohiyati, ma'naviy fazilatlarini hamda kasbiy mahoratini baholash maqsadida o'tkaziladi.

Suhbat intervyu yoki taqdimot (keys-stadi, topshiriq) kabi usullar asosida amalga oshiriladi.

32. Suhbat Tanlov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Suhbatda Tanlov komissiyasi a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

Agar tanlov komissiyasi a'zosi suhbatdan o'tayotgan shaxsning yaqin qarindoshi bo'lsa yoki suhbat natijasidan bevosita manfaatdor bo'lsa yohud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa, a'zo o'zini o'zi rad etishi shart. Mazkur tartibga rioya qilmaslik tanlov natijalarini bekor qilishga asos bo'ladi.

Agentlik tomonidan ayrim hollarda (davlat organini tashkil etish, qayta tashkil etish) tanlovning suhbat bosqichini o'tkazish bo'yicha Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan kelishilgan holda Maxsus komissiya tuzilishi mumkin.

33. Qonunchilik hujjatlarida lavozimga tayinlashda nomzodni tegishli vazirlik yoki idora bilan kelishish belgilangan lavozimlar bo'yicha Tanlov komissiyasi tarkibiga mas'ul vakili kiritilgan vazirlik yoki idora Ishchi organ tomonidan suhbat o'tkaziladigan kundan kamida uch ish kuni oldin xabardor qilinishi shart.

34. Suhbatning intervyu usulida har bir nomzodga soha bo'yicha bilim saviyasi, shaxsiy va kasbiy kompetensiyasi, umumiy dunyoqarashi hamda vakant lavozim uchun mosligini aniqlashga qaratilgan beshta savol (topshiriq) tasodifiy tanlash (avtomatik generatsiya) orqali beriladi. Asosiy savollardan so'ng berilgan javoblarni aniqlashtirish maqsadida ko'pi bilan beshta qo'shimcha savol berishi mumkin.

Savollar (topshiriqlar) agentlik tomonidan ishlab chiqilib, agentlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

35. Suhbatning taqdimot usulida ishchi organ tomonidan suhbat o'tkazish kundan uch kun oldin nomzodlarning Portaldagi shaxsiy kabinetiga taqdimot (topshiriq) mavzulari yuboriladi.

Suhbat davomida nomzod berilgan mavzulardan biri bo'yicha taqdimot qilib beradi. Taqdimotdan so'ng Tanlov komissiyasi a'zolari har bir nomzodning taqdimot mavzusi doirasida aniqlashtirish maqsadida ko'pi bilan beshta qo'shimcha savol berishi mumkin.

36. Nomzodlarni baholash uchun har bir Tanlov komissiyasi a'zosiga Portalda shaxsiy kabinet ochiladi.

Tanlov komissiyasi a'zolari har bir nomzod shu kunning o'zida Portaldagi

shaxsiy kabineti orqali onlayn tarzda nomzodlarni to'rtta yo'nalishda (bilim saviyasi, shaxsiy va kasbiy kompetensiyasi, umumiy dunyoqarashi, vakant lavozim uchun mosligi) 100 ballik tizim asosida baholaydi.

37. Suhbat yakunlari bo'yicha Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan nomzodga qo'yilgan ballarni avtomatik ravishda umumlashtirilib, yakuniy ball hisoblanadi.

Suhbat natijasiga ko'ra eng yuqori yakuniy ball to'plagan nomzod tanlov g'olibi deb topilib, Tanlov komissiyasi bayonnomasi bilan tasdiqlanadi.

Mazkur Nizomning 15-bandi sakkizinchi xatboshisida nazarda tutilgan mas'ul vakil tomonidan suhbat uchun qo'yilgan o'rtacha ball 56 balldan past bo'lgan taqdirda nomzod tanlov g'olibi deb topilishi mumkin emas.

Nomzodlarning ballari teng bo'lgan taqdirda Tanlov komissiyasi raisining xulosasiga asoslanib yakuniy qaror qabul qilinadi.

Tanlov g'olibi o'z arizasiga ko'ra mehnat shartnomasini tuzishdan bosh tortgan taqdirda, Tanlov komissiyasi xulosasiga asosan hisoblangan ballga ko'ra navbatdagi o'rinni egallagan nomzod tanlov g'olibi deb topilishi mumkin.

Tanlov natijasida nomzodlar 56 balldan past bo'lgan yakuniy ball to'plagan taqdirda, tanlov g'olibi topilmagan deb hisoblanib, tanlov qaytadan e'lon qilinadi.

38. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi suhbatda kuzatuvchi sifatida ishtirok etish uchun o'z vakilini yuborish huquqiga ega.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining vakili suhbat o'tkazish jarayoni tanlovni tashkillashtirish va o'tkazish qoidalariga mos kelishi, shuningdek, tanlov komissiyasining xolis qaror qabul qilishi bo'yicha nazorat olib boradi.

39. Nomzodlar tanlov komissiyasi qaroridan norozi bo'lgan taqdirda qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddatda tanlov natijalari bo'yicha komissiya qarori ustidan yuqori turuvchi organga, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

40. Tanlov g'olibi aniqlangan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida agentlikning direktori tanlov g'olibi bilan mehnat shartnomasini tuzadi.

Ishchi organ tomonidan bir kunlik muddatda Tanlov komissiyasining bayonnomasi va tanlov g'olibi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi Portalga joylashtiriladi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

41. Tanlov o'tkazish jarayonida ushbu Nizom qoidalariga rioya etmaslik holatlari aniqlangan taqdirda, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Agentlik rahbariga aniqlangan qonunchilik buzilishlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish va tanlov komissiyasining qarorini bekor qilish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnoma kiritadi.

42. Tanlov komissiyasining a'zolari hamda tanlov jarayoni ishtirokchilari

toʻmonidan tanlov davomida nomzodlar toʻgʻrisida olingan shaxsiy maʼlumotlarni oshkor qilish taqiqlanadi.

43. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor boʻlgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Maktabgacha ta'lim agentligi markaziy
apparati vakant lavozimlarga xodimlarni
ishga qabul qilishda tanlov asosida saralab
olish tartibi to'g'risidagi nizomga
1-ilova

Tanlovdan chetlashtirish haqida DALOLATNOMA

Toshkent shahri

20 ____ yil “ ____ ” _____

Biz, quyida imzo chekuvchilar shuni tasdiqlaymizki, nomzod _____

_____ quyidagi sabablarga ko'ra

(nomzodning F.I.O)

tanlovdan soat ____ : ____ da chetlatildi:

ariza taqdim qilishda yolg'on ma'lumotlar yoki soxta hujjatlar taqdim etdi;
qonun hujjatlaridan, ma'lumot beruvchi va maxsus adabiyotlardan, har qanday turdagi
texnika vositalaridan yoki boshqa materiallardan (ma'lumotlardan) foydalandi;

boshqa nomzodlar bilan suhbatlashdi;

test sinovi o'tkazilayotgan xonadan ruxsatsiz tashqariga chiqdi.

O'zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya” to'g'risidagi Qonunini 44-
moddasi bo'yicha ta'qiq mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 121-moddasi talablariga zid.

Nomzod tomonidan Maktabgacha ta'lim agentligi markaziy apparatidagi vakant
lavozimlarga xodimlarni ishga qabul qilishda tanlov asosida saralab olish tartibini tasdiqlash
to'g'risidagi nizom talablari buzildi.

Komissiya a'zosi:

(imzo)

(F.I.O.)

Komissiya a'zosi:

(imzo)

(F.I.O.)

Maktabgacha ta'lim agentligi markaziy
apparati vakant lavozimlarga xodimlarni
ishga qabul qilishda tanlov asosida saralab
olish tartibi to'g'risidagi nizomga
2-ilova

Suhbat o'tkaziladigan tashkilot nomi

SUHBAT VARAG'I

(suhbat o'tkaziladigan joy)

20__ yil " __ " _____

Ism, familiyasi va otasini ismi	
Tug'ilgan yili, oy, kuni va joyi	
Ma'lumoti	
Diplom buyicha mutaxassisligi	
Amaldagi lavozimi	
Nomzod da'vogarlik qilayotgan lavozim	

Komissiya a'zosi: _____
(familiyasi, ismi va otasining ismi)

(egallab turgan lavozimi)

Berilgan ballar miqdori:

T/r	Savollar	Maksimal ball
1.		15 ball
2.		15 ball
3.		15 ball
4.		15 ball
5.		15 ball
Taqdimot uchun ball		25 ball
Jami		100 ball

_____ imzo

Maktabgacha ta'lim agentligi markaziy apparati vakant lavozimlarga xodimlarni ishga qabul qilishda tanlov asosida saralab olish tartibi to'g'risidagi nizomga
3-ilova

Tanlov komissiyasi
BAYONI

(tanlov o'tkaziladigan joy)

20__ yil " __ " _____

Rais:

Komissiya a'zolari:

Taklif qilinganlar:

Yig'ilish kun tartibi:

bo'yicha o'tkazilgan tanlovda. Tanlov komissiyasining xulosasi (qabul qilishning asoslantirilishi)

Tanlov komissiyasi raisi:

Imzo

F.I.O

Tanlov komissiyasi a'zosi:

Imzo

F.I.O

Tanlov komissiyasi a'zosi:

Imzo

F.I.O

Tanlov komissiyasi a'zosi:

Imzo

F.I.O

Tanlov komissiyasi kotibi:

Imzo

F.I.O

**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
Maktabgacha ta'lim agentligi nomenklaturasiga kiritilgan mavjud vakant
lavozimlarga ishga qabul qilishda tanlov asosida saralab olish bo'yicha tanlov
komissiyasi
Tarkibi**

- | | |
|-----------------------|---|
| 1. Boboyev F.A. | Maktabgacha ta'lim agentligi direktorining birinchi o'rinbosari, Komissiya raisi |
| 2. Muslitdinov N.X. | Direktor o'rinbosari, komissiya hamraisi |
| 3. Raxmatillayev O.Z. | Direktor o'rinbosari, komissiya hamraisi |
| 4. Buriyev X.K | Direktor maslahatchisi, a'zo |
| 5. Usanov Z.B. | Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i, a'zo |
| 6. Bashirov B.A. | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i, a'zo |
| 7. Usmonov M.M. | Yuridik ta'minlash bo'limi boshlig'i, a'zo |
| 8. Berdiyeva L.A. | Kasaba uyushmasi raisi, a'zo |
| 9. Pardayev Sh.Ch. | Moliya-iqtisod va davlat – xususiy sheriklikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i, a'zo |
| 10. Ismoilov Sh.Sh. | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi, mas'ul kotib |

Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda komissiya tarkibiga ularning lavozimlariga tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalar yuklangan shaxslar kiritiladi.

*Komissiya tarkibiga tanlov o'tkaziladigan bo'sh bo'lgan lavozim mavjud tarkibiy bo'linma rahbari kiritilishi mumkin.

**Direktor yoki komissiyaning roziligi bilan komissiya tarkibiga mazkur komissiya a'zolari o'rniga yoki qo'shimcha ravishda nomzodlarning faoliyat yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi agentlikning boshqa tarkibiy bo'linmalari mutaxassislari jalb etilishi mumkin.

Komissiya a'zolari tanlov jarayonlariga o'z o'rniga ishonchnoma asosida tarkibiy bo'linmada faoliyat ko'rsatayotgan boshqa mutaxassisga qatnashish huquqini berishi mumkin. *Komissiya kotibi ovoz berish huquqiga ega emas.”.